RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	748
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI	754
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umiddbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Seytimbetov Kabul Serimbetovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası o'qituvchisi

Email: Sks-1971@mail.ru

Annotatsiya. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar o'z xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlarning talablariga mos xizmatlarni taqdim etish korxonalarning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish korxonalar faoliyatining barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: servis korxonalari, kredit siyosati, investitsiya siyosati, ijtimoiy motivatsiya, aqlli texnologiyalar.

Abstract. In modern economic conditions, enterprises pay special attention to improving their service systems. Increasing competitiveness and providing services that meet customer requirements is the key to business success. Effective organization of service processes serves to ensure the stability of enterprise operations and economic growth.

Key words: service enterprises, credit policy, investment policy, social motivation, smart technologies.

Аннотация. В современных экономических условиях предприятия уделяют особое внимание совершенствованию своих систем обслуживания. Повышение конкурентоспособности и предоставление услуг, соответствующих требованиям клиентов, являются ключом к успеху предприятий. Эффективная организация процессов обслуживания служит обеспечению стабильности деятельности предприятий и экономического роста.

Ключевые слова: сервисные предприятия, кредитная политика, инвестиционная политика, социальная мотивация, умные технологии.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida qaraladi. Xizmat tarmoqlari yalpi ichki mahsulot tarkibida yuqori ulushni egallab, aholi bandligini oshirish, ichki talabni kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xizmatlar sektori barqaror sur'atlarda rivojlanib, yangi turdagi xizmatlar shakllanmoqda va raqamli texnologiyalar asosida mijozlarga qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Xizmat jarayonlarini yanada optimallashtirish, resurslar taqsimotini takomillashtirish, raqamli yechimlarni keng joriy etish hamda xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish orqali xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati yanada samarali va barqaror rivojlanish bosqichiga chiqishi kutilmoqda.

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari, amaliy yo'nalishlari hamda uni takomillashtirish mexanizmlarining zaruriyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida xizmatlar sektorida innovatsion boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish va raqamli transformatsiyani uyg'unlashtirish orqali korxonalar faoliyatini optimallashtirishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar o'z xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlarning talablariga mos xizmatlarni taqdim etish korxonalarning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish korxonalar faoliyatining barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Servis korxonalari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga doir ta'riflar ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning tadqiqotlarida uchraydi. A.A. Kulman "tashkiliy-iqtisodiy mexanizm – bu muayyan iqtisodiy hodisalarning to'plami yoki ketma-ketligidir", deb ta'kidlaydi. B.Z. Milner va A.V. Kochetkov esa iqtisodiy usullarning o'zaro moslashuviga urg'u beradi. Ularning fikricha, tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim: mas'uliyat hissini shakllantirish, maqsad qo'yish, ishtirokchilarning motivatsiyasini ta'minlash hamda aniq natijalarga erishish uchun resurslarni taqsimlash va taqdim etish¹.

Bizning fikrimizcha, servis korxonasi faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lib, ularga rioya qilish korxona faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi:

- korxona tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tavsifdagi sharoitlarga moslashishi;
- bozor mexanizmi elementlariga asoslangan muhim iqtisodiy qonunlar tamoyillariga qat'iy rioya qilish;
- iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tizimli tahlil qilish va uning asosida servis korxonasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini hal etish;
- korxonalarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash natijasida ijtimoiy va shaxsiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash;
- ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning barcha darajalarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarining o'zaro bog'liqligi;
- korxona boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish va faoliyat yuritishini axborot bilan ta'minlash.

Ushbu tamoyillarga rioya qilish servis korxonasi faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlashi kerak: xo'jalik va moliyaviy faoliyat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (xizmatlar)ning raqobatbardoshligiga erishish, xo'jalik subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratish, xodimlar va ularning jamoalarini korxonaning yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlariga qiziqtirishni oshirish, moddiy-texnika bazasini sifatli yangilash va yuqori texnologiyalarga asoslanishini ta'minlash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda statistik ma'lumotlar, tahliliy hisobotlar va amaliy kuzatuvlardan olingan ma'lumotlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tahliliy va grafik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning asosida xizmat jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari ilmiy asosda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Servis korxonasining barqaror rivojlanishini boshqarishni amalga oshirishning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi: moliyaviy-iqtisodiy (korxona qiymatini baholash, korxona holatini diagnostika qilish, kredit siyosati, investitsiya siyosati va boshqalar); tashkiliy (tashkiliy tuzilmadagi o'zgarishlar, korxonani qayta tashkil etish, ijtimoiy motivatsiya tizimini ishlab chiqish va boshqalar); me'yoriy (korxona faoliyatini huquqiy va me'yoriy jihatdan qo'llab-quvvatlash va boshqalar); infratuzilmaviy (korxonaning moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, asosiy fondlarni tahlil qilish, texnologik jarayonni modernizatsiya qilish va boshqalar); ta'lim (xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, lavozim vakolatlarini rivojlantirish, murabbiylik tizimini joriy etish, korxonaning biznes jarayonlarini optimallashtirish va boshqalar).

Servis korxonasining raqobatbardosh barqaror rivojlanishini tashkiliy mexanizm doirasida boshqarish korxonaning iqtisodiy salohiyatini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini oltita yo'nalish bo'yicha tasniflash mumkin: ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish), innovatsion, moliyaviy, kadrlar, marketing va raqamli salohiyat.

Xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim omillardandir. Sun'iy intellekt, axborot tahlili va IT texnologiyalaridan foydalanish xizmatlar sifatini oshirish, tezkorlikni ta'minlash va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

1 <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-ekonomicheskij-mexanizm/viewer>



Xizmat ko'rsatish sohasida korxonalar faoliyatini rivojlantirish dasturining maqsadi — servis korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, yo'nalishlarni takomillashtirish va tegishli shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ushbu dastur korxonalar xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi operatsion samaradorlikni oshirish, mijozlarga qulay sharoit yaratish va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirishdir. Dastur orqali korxonalar o'z xizmatlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirib, yanada yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

1. Dasturining maqsad va vazifalari. Ushbu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad — korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish orqali samaradorlikni va mijozlarga qulaylikni oshirishdir. Buning uchun xizmatlar sifatini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan diversifikatsiyani amalga oshirish talab etiladi. Dastur doirasida xizmat ko'rsatish jarayonlarini chuqur tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, xodimlarning malakasini oshirish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Dastur quyidagi vazifalarni ko'zda tutadi:

— korxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun, eng avvalo, mijozlarga yo'naltirilgan strategiyani shakllantirish lozim. Buning uchun mijozlarning ehtiyoj va talablarini chuqur o'rganish, ularning fikr-mulohazalarini muntazam tahlil qilish hamda xizmat jarayonlarini doimiy takomillashtirish zarur. Xodimlarni mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha muntazam o'qitish, ularda samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va xizmat jarayonlarini soddalashtirish orqali korxona obro'sini oshirish mumkin. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, masalan, sun'iy intellekt asosida ishlovchi chat-botlar va avtomatlashtirilgan xizmat tizimlari mijozlarga tez va sifatli xizmat ko'rsatishga yordam beradi;

— innovatsion texnologiyalarni joriy etish har qanday sohaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki ular samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va mijozlarga qulaylik yaratishga xizmat qiladi. Korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ish jarayonlarini takomillashtirish, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va qaror qabul qilishni optimallashtirish mumkin. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar mahsulot va xizmat sifatini oshirish bilan birga, mijozlarning talablarini yanada to'liq qondirish imkonini beradi;

— korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish zamonaviy korxonalar uchun samaradorlikni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirishning eng muhim vositalaridan biridir. Ishlab chiqarishda avtomatlashtirish robotlar, dasturiy ta'minot bilan boshqariladigan tizimlar va aqlli texnologiyalar orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtiradi;

— xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish har qanday biznesning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni kamaytirishning asosiy yo'llaridan biri — resurslardan samarali foydalanish va yo'qotishlarni minimallashtirishdir. Shuningdek, bulut texnologiyalari hamda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlardan foydalanish orqali ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini soddalashtirish va operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi;

— mijozlar ehtiyojlariga mos ravishda xizmat turlarini diversifikatsiya qilish korxonalarning bozor talablariga moslashuvi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Diversifikatsiya orqali korxonalar turli segmentlarga xizmat ko'rsatib, mijozlar bazasini kengaytiradi va risklarni kamaytiradi. Bundan tashqari, mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini kuzatib borish va ularga mos ravishda yangi xizmat turlarini taklif etish korxonalarning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

2. Xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish. Xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun xodimlarning malakasini doimiy oshirish va ularni mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Mijozlarning fikr-mulohazalarini muntazam tahlil qilish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish orqali korxonalar o'z xizmatlarini doimiy ravishda yaxshilab borishlari zarur. Shu tariqa, texnologiyalar va inson resurslarini samarali boshqarish orqali xizmat ko'rsatish darajasi sezilarli darajada oshiriladi.

Bunda:

— kadrlar salohiyatini oshirish: xodimlarning malakasini doimiy oshirish va ularni qayta tayyorlash xizmat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy bozor sharoitida mijozlarning talab va taklif tez o'zgarayotganligi sababli, xodimlar yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, rag'batlantirish tizimini joriy etish xodimlarning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, xizmat sifati yaxshilanishiga olib keladi;

— raqamli xizmatlar: raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko'rsatish jarayonlarini tezlashtirib, mijozlarga qulaylik yaratadi. Onlayn xizmatlar va elektron hujjat aylanishi korxonalarga vaqt hamda resurslarni tejash imkonini beradi;

— resurslardan samarali foydalanish: xizmat ko'rsatish infratuzilmasini optimallashtirish va innovatsion yondashuvlardan foydalanish korxonalarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, biznes jarayonlarini doimiy tahlil qilish va mavjud infratuzilmani takomillashtirish orqali korxona xizmatlari sifatini oshirish mumkin.



3. Dastur bosqichlari. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, samaradorlik ortadi va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Dastur quyidagi to'rt bosqichdan iborat: tahlil bosqichi, loyiha bosqichi, tatbiq etish bosqichi hamda monitoring va baholash bosqichi. Har bir bosqich o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, dastur muvaffaqiyati ushbu bosqichlarning samarali bajarilishiga bog'liq.

1. Dasturining birinchi bosqichi mavjud xizmat ko'rsatish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlashdan iborat. Bu bosqichda xizmat jarayonlari qanday ishlayotgani o'rganiladi, mijozlarning fikr-mulohazalari tahlil qilinadi va samaradorlikni pasaytiruvchi omillar aniqlanadi. Shuningdek, raqobatchilar tajribasi hamda sohadagi ilg'or amaliyotlar o'rganilib, korxona uchun eng maqbul yondashuvlar belgilanadi. Ushbu bosqich natijasida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha dastlabki tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Ushbu bosqichda dastur asosida amalga oshiriladigan yangi mexanizmlar ishlab chiqiladi va ularni tatbiq etish rejasi tuziladi. Yangi xizmat ko'rsatish jarayonlarini loyihalashda innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or boshqaruv usullari hisobga olinadi. Shu bosqichda dastur budjeti, zarur resurslar va amalga oshirish muddati aniqlanadi.

3. Bu bosqichda ishlab chiqilgan loyiha amaliyotga tatbiq etiladi va uning bajarilishi nazorat qilinadi. Yangi xizmat ko'rsatish mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilinib, xodimlar tayyorlanadi hamda dastur ish jarayoni kuzatib boriladi. Tatbiq etish bosqichi davomida dastur natijalari muntazam monitoring qilinadi, aniqlangan muammolar bartaraf etiladi va zarur tuzatishlar kiritiladi. Ushbu bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, yangi tizim korxona faoliyatiga samarali integratsiya qilinadi.

4. Dastur joriy etilgandan so'ng, uning samaradorligini tahlil qilish va natijalarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda dastur natijalari o'rganilib, asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha samaradorlik darajasi baholanadi. Agar dastur kutilgan natijalarni bermasa, kerakli takomillashtirishlar kiritiladi va jarayonlar optimallashtiriladi. Shu tariqa, dastur doimiy ravishda yangilanib, xizmat ko'rsatish sifatining uzluksiz oshirilishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tashkil etish va takomillashtirish raqobatbardoshlikni oshirish hamda mijozlarning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu dastur doirasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirish orqali korxonalar o'z faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilganda, korxonalarda xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Bu esa mijozlarning qoniqish darajasini oshirishga hamda iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 557 p.
2. J. Schumpeter. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
3. P. Kotler, K.L. Keller. Marketing Management. – 15th ed. – New York: Pearson Education, 2016. – 832 p.
4. V.G. Ramazanov. Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Fan, 2019. – 210 b.
5. M. Nussbaum. Creating Capabilities: The Human Development Approach. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 237 p.
6. R. Kaplan, D. Norton. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.
7. J.E. Stiglitz, C. Walsh. Economics. – 5th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2017. – 870 p.
8. Z.M. Abduvaliev. Innovatsion boshqaruv va raqamli iqtisodiyotda xizmatlar sektori. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 198 b.
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-ekonomicheskij-mexanizm/viewer>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
